



MILLIY MADANIY MEROSNI SAQLASHDA MUZEYLARNING O‘RNI

Nodirabegim Sobirova,

*O‘zbekiston amaliy san‘at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi Matbuot kotibi,
O‘zDSMI mustaqil izlanuvchisi*

Djalalova Gavxar Tashpulatovna,

*O‘zbekiston amaliy san‘at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi Ko‘chma ko‘rgazmalar
bo‘limi mudiri*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19603647>

Annotsiya. Maqolada muzeylarning milliy madaniy merosni saqlash, tadqiq etish va ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalashdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, muzeylar milliy identitetni mustahkamlash, turizmni rivojlantirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali madaniy merosni keng targ‘ib qilishdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: muzey, milliy madaniy meros, identitet, turizm, axborot texnologiyalari.

Annotation. The article analyzes the role of museums in preserving, studying, and integrating national cultural heritage into the educational process. Special attention is given to their significance in strengthening national identity, promoting tourism, and utilizing modern information technologies to popularize cultural heritage.

Keywords: museum, national cultural heritage, identity, tourism, information technologies.

Globalashuv jarayonlari tobora jadallashib borayotgan hozirgi davrda har bir xalq o‘zining milliy o‘zligini asrab-avaylash, tarixiy xotirasini mustahkamlash hamda ma’naviy qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish masalasiga alohida e’tibor qaratmoqda. Zero, globalashuv bir tomondan turli xalqlar o‘rtasida madaniy almashinuvni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan ayrim milliy xususiyatlar va an’analarning asta-sekin yo‘qolib borish xavfini ham keltirib chiqaradi [12, B.41-43]. Shu bois jamiyatning tarixiy tajribasi, urf-odatlar va madaniy merosini saqlash bilan shug‘ullanuvchi institutlar, xususan muzeylar va arxivlar jamiyatning o‘ziga xos “ijtimoiy xotira markazi” sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi milliy madaniy merosni asrash jarayonida muzeylarning o‘rni va ahamiyatini nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berish, shuningdek ularning milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy tarbiya va jamiyatning barqaror rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’sirini ilmiy tahlil qilishdan iborat. Milliy madaniy meros — bu xalqning asrlar davomida yaratgan moddiy va nomoddiy boyliklari majmuidir. U xalqning tarixiy taraqqiyoti, ma’naviy dunyosi va madaniy qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi hamda milliy o‘zlikni belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Milliy madaniy meros davlat muhofazasida bo‘lib, u orqali xalqning o‘tmishi, turmush tarzi va ma’naviy qadriyatlari namoyon bo‘ladi [2, B.34-35]. Bunga tarixiy obidalar, me’moriy majmualar, san‘at asarlari bilan bir qatorda an’analar, urf-odatlar, xalq og‘zaki ijodi, musiqa va san‘at namunalari ham kiradi. Masalan, Xiva shahridagi Ichan qal’a majmuasi, Samarqanddagi tarixiy obidalar, maqom san’ati hamda milliy hunarmandchilik an’analari milliy madaniy merosning yorqin namunalari sifatida



e'tirof etiladi. Milliy madaniy meros odatda moddiy va nomoddiy turlarga bo'linadi. Moddiy madaniy merosga arxeologik yodgorliklar, me'moriy majmualar, tarixiy shahar markazlari hamda muzeylarda saqlanayotgan turli tarixiy buyumlar kiradi. Masalan, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi tarixiy me'moriy majmualar moddiy madaniy merosning muhim qismi hisoblanadi. Nomoddiy madaniy meros esa milliy an'analar, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi, qo'shiqchilik, raqs san'ati va boshqa madaniy ifoda shakllarini o'z ichiga oladi [13, B.20]. Ushbu meros turlari xalqning madaniy o'ziga xosligini saqlash va uni avloddan-avlodga yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash, ularni ilmiy asosda o'rganish va zamonaviy talablarga mos ravishda ommalashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tarixiy obidalarni restavratsiya qilish, muzey fondlarini boyitish, madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish, shuningdek ularni turizm va ta'lim tizimi bilan integratsiya qilish bo'yicha muhim tashabbuslar ilgari surildi. Mazkur chora-tadbirlar nafaqat milliy madaniy merosni saqlash va targ'ib qilishga xizmat qilmoqda, balki uni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omillardan biriga aylantirishga ham zamin yaratmoqda.

Milliy o'zlik va identitet masalasi so'nggi yillarda falsafa, sotsiologiya, pedagogika va madaniyatshunoslikda dolzarb mavzulardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Milliy identiklik tushunchasi “milliy g'urur”, “milliy tuyg'u”, “o'zlikni anglash”, “milliy mentalitet” kabi tarkibiy unsurlar bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Bu jarayonda tarixiy xotira va madaniy merosni saqlash mexanizmlarining samarali ishlashi muhim ahamiyatga ega. Muzeylar, arxivlar, madaniy meros obyektlari – bularning barchasi jamiyatning tarixiy va ma'naviy xotirasini moddiy va ma'naviy shaklda mujassamlashtiruvchi tizim hisoblanadi. Arxivlar faoliyatiga doir tadqiqotlar, mustaqillik yillarida bu sohada huquqiy bazaning yaratilishi, texnik bazaning mustahkamlanishi va axborot texnologiyalarini joriy etish jarayoni bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi [7, B.23-25].

Shuningdek, globallashtirish sharoitida milliy o'zlikni saqlash va ma'naviy qadriyatlar himoyasini ta'minlash masalalari ham muzeylar faoliyati bilan uzviy aloqador bo'lib, ularning ekspozitsiyalari, ilmiy-ma'rifiy dasturlari orqali yosh avlodda milliy g'oya va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish zarurati ta'kidlanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng milliy tarix, madaniyat va qadriyatlarni tiklash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Davlat tomonidan tarixiy obidalar, arxeologik yodgorliklar, qo'lyozmalar va boshqa madaniy boyliklarni saqlash, ta'mirlash hamda o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Bu borada bir qator qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari qabul qilindi. Jumladan, “Madaniyat to'g'risida”gi Qonun (1992-yil) mamlakatda madaniyat sohasini rivojlantirish va madaniy boyliklarni asrashning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Shuningdek, “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida”gi Qonun (2001-yil) tarixiy va madaniy yodgorliklarni



davlat tomonidan muhofaza qilish, ularni saqlash va tiklash tartibini belgiladi. So‘nggi yillarda Prezident qaror va farmonlari orqali madaniy merosni asrash tizimi yanada takomillashtirildi. Xususan, 2017-yil 24-maydagi Prezident qarori qadimiy yozma manbalarni saqlash, restavratsiya qilish va ilmiy tadqiq etish tizimini rivojlantirishga qaratildi. Bundan tashqari, tarixiy shaharlar — Samarqand, Buxoro, Xiva kabi hududlardagi me‘moriy yodgorliklarni ta‘mirlash va ularni turizm markazlariga aylantirish bo‘yicha davlat dasturlari amalga oshirildi. Natijada mustaqillik yillarida O‘zbekistonning boy madaniy merosi tiklanib, ko‘plab tarixiy obidalar restavratsiya qilindi, milliy qadriyatlar rivojlantirildi va ularni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish imkoniyati kengaydi [5, B.57-60]

O‘zbekiston muzeylari faqatgina tarix manzaralari namoyish etiladigan joy bo‘lib qolmasdan, balki madaniy almashuvlar, ta‘lim va turizmning o‘ziga xos markazi hisoblanadi. Shu ma‘noda ularni asrab-avaylash va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Muzeylarning eng asosiy vazifasi – tarixiy, badiiy, ilmiy va etnografik ahamiyatga ega bo‘lgan eksponatlarni yig‘ish, saqlash va hujjatlashtirishdan iborat. Bu jarayon orqali moddiy va nomoddiy madaniy merosning muhim unsurlari keyingi avlodlarga yetkaziladi. Moddiy madaniy meros obyektlari, madaniy boyliklar, muzey ashyolari va kolleksiyalarini aniqlash, ularning davlat hisobini yuritish hamda sohada ta‘sirchan davlat nazoratini amalga oshirish, moddiy madaniy meros va muzeylar sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ularga oid ma‘lumotlarning barcha uchun ochiq bo‘lishini ta‘minlash, madaniy merosimizning jahon madaniy makoniga integratsiyalashuviga ko‘maklashish va ularni keng ommalashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida muzeylarni kompleks rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shu kabi yondashuvlar muzeylar uchun ham dolzarb bo‘lib, kolleksiyalarni raqamlashtirish va elektron fondlar yaratish merosni zamonaviy usullarda asrashga xizmat qiladi.

Muzeylar yosh avlodni milliy qadriyatlar, an‘analar va tarixiy shaxslar merosini chuqur anglash ruhida tarbiyalashda muhim ma‘naviy-ma‘rifiy maskan hisoblanadi. Muzey ekspozitsiyalari, tematik ko‘rgazmalar va ma‘rifiy tadbirlar orqali o‘quvchilarda tarixiy xotira, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ulari shakllanadi. Shu bois muzeylar faoliyatini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonuni (1998-yil) muzeylarning madaniy merosni saqlash va yosh avlodga yetkazishdagi rolini belgilaydi. Shuningdek, “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun (2001-yil) tarixiy yodgorliklarni asrash va targ‘ib qilishning huquqiy asoslarini yaratadi. Bundan tashqari, Prezident qaror va farmonlari orqali muzeylar faoliyatini modernizatsiya qilish, ularni ma‘rifiy markaz sifatida rivojlantirish va yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Globalashuv jarayonlari bir tomondan madaniyatlararo muloqotni kuchaytirs, boshqa tomondan milliy o‘zlik va qadriyatlarga ma‘lum xavf tug‘dirishi mumkin.



Shu nuqtai nazardan, muzeylar nafaqat merosni saqlovchi, balki uni dunyo hamjamiyati bilan muloqotga kirituvchi, madaniyatlararo aloqalarda milliy qiyofani namoyon qiluvchi maydon sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda bu soha huquqiy jihatdan bir qator normativ hujjatlar bilan mustahkamlangan. Jumladan, “Turizm to‘g‘risida”gi Qonun (2019-yil) mamlakatda turizmni rivojlantirish, turistik xizmatlar sifatini oshirish va tarixiy-madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Shuningdek, “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun (2001-yil) tarixiy yodgorliklarni asrash va ularni turizm jarayonida ehtiyotkorlik bilan foydalanish tartibini belgilab beradi. Madaniy meros obyektlari asosida turizmni rivojlantirish, turli muzeylar, tarixiy obidalar va memorial majmualarga tashriflar sonini oshirish orqali iqtisodiy samaraga erishish mumkin. Shu bilan birga, turizmni haddan tashqari tijoratlashuvdan himoya qilish, meros obyektlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, restavratsiya va konservatsiya ishlarini ilmiy asosda olib borish zarur.

Axborot texnologiyalari va raqamlashtirish jarayoni madaniy merosni saqlash, o‘rganish va keng jamoatchilikka yetkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida muzey eksponatlari, qo‘lyozmalar va tarixiy manbalar elektron shaklga o‘tkazilib, ularni saqlash hamda ilmiy tadqiqotlar uchun foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, virtual ko‘rgazmalar, raqamli kataloglar va onlayn platformalar orqali madaniy merosni keng targ‘ib qilish imkoniyati yaratilmoqda. Shuningdek, muzeylar faoliyatida raqamlashtirish, 3D-modellashtirish, virtual va qo‘shimcha reallik (VR/AR) texnologiyalaridan foydalanish orqali eksponatlarni saqlash, ularni keng auditoriyaga yetkazish, chekka hududlarda yashovchi aholi va xorijiy tashrif buyuruvchilar uchun ochiq qilish imkoniyatlari kengayadi. Bu jarayon O‘zbekistonda raqamli transformatsiya siyosati, xususan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Mazkur strategiya madaniyat va muzeylar faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etishni nazarda tutadi.

Milliy madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilish jarayonida muzeylar muhim ilmiy-madaniy markaz sifatida faoliyat yuritadi. Bu jarayonni amaliy jihatdan tahlil qilishda Toshkent shahrida joylashgan O‘zbekiston amaliy san‘at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur muzey nafaqat amaliy san‘at namunalarini saqlash, balki milliy hunarmandchilik an‘analarini o‘rganish, ularni keng jamoatchilikka yetkazish va kelajak avlodlarga meros sifatida qoldirishga xizmat qilmoqda.

Muzey binosining o‘zi ham tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning markaziy zali - mehmonxona zali XIX asrga oid me‘moriy inshoot hisoblanadi. Ushbu bino me‘moriy yodgorlik sifatida davlat tomonidan muhofaza qilinadigan madaniy meros obyektlaridan biridir. Shuning uchun muzey nafaqat undagi eksponatlar, balki



o‘zining tarixiy me‘moriy tuzilishi bilan ham milliy madaniy merosning muhim qismi sifatida e‘tirof etiladi.

Bugungi kunda muzey fondida 10 mingga yaqin eksponat saqlanmoqda. Ushbu boy fond hunarmandchilik san‘atining keng ko‘lamini qamrab olgan 20 ta turli kolleksiyadan iborat bo‘lib, ular O‘zbekiston amaliy san‘atining rivojlanish tarixi, milliy an‘analari hamda madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. Muzeydagi eksponatlar uch avlodga mansub xalq ustalarining ijodini aks ettiradi. Ular orasida yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik, zargarlik, mis o‘ymakorligi, gilam to‘qish, kashtachilik va boshqa hunarmandchilik yo‘nalishlariga oid noyob namunalar mavjud. Muzey fondida saqlanayotgan eng qadimiy eksponatlar milodiy II–XII asrlarga oid bo‘lib, asosan kulolchilik buyumlaridan iborat. Ushbu topilmalar O‘zbekiston hududida kulolchilik san‘ati qadimdan rivojlanganini ko‘rsatib, xalq hunarmandchiligining boy tarixiy merosini yoritib beradi.

Shuningdek, XIX–XX asrlarga oid noyob amaliy san‘at namunalari ham muzey kolleksiyasining muhim qismini tashkil etadi. Mazkur asarlar o‘zbek xalqining estetik qarashlari, san‘at an‘analari va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi hamda milliy san‘atni targ‘ib qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois muzey nafaqat mahalliy aholi, balki xorijiy sayyohlar va san‘at ixlosmandlari uchun ham qiziqarli madaniy maskanlardan biri hisoblanadi.

Milliy madaniy merosni saqlash va boyitishda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 maydagi PQ-261-son qarori asosida “Milliy merosga mening hissam!” umumxalq aksiyasi yo‘lga qo‘yildi. Mazkur aksiya aholida saqlanayotgan madaniy boyliklarni davlat muzeylari fondiga qabul qilish va ularni keng jamoatchilikka namoyish etishga qaratilgan. Ushbu tashabbus doirasida O‘zbekiston amaliy san‘at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi fondi ham yangi eksponatlar bilan boyitildi. Jumladan, 2025-yil holatiga ko‘ra muzey fondiga jami 48 dona buyum qabul qilinib, shundan 35 tasi fuqarolar tomonidan beg‘araz topshirilgan, 13 tasi esa O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tomonidan xarid qilinib muzeyga doimiy saqlash uchun topshirilgan.

Bugungi kunda O‘zbekiston amaliy san‘at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi nafaqat Tashkent shahrining muhim madaniy va turistik markazlaridan biri, balki O‘zbekiston xalqining boy madaniy merosini ifodalovchi muhim maskan sifatida e‘tirof etiladi. Muzey ochiq eshiklar tamoyili asosida faoliyat yuritib, xalqaro delegatsiyalar, sayyohlar hamda san‘atga qiziquvchi tadqiqotchilar uchun doimiy ravishda ochiqdir. Shu orqali u milliy madaniy merosni saqlash, o‘rganish va dunyo miqyosida targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, muzeylar milliy madaniy merosni saqlashda ko‘p qirrali vazifalarni bajaradi: moddiy va nomoddiy merosni jamlash va saqlash, ta‘lim-tarbiya va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar olib borish, milliy identitetni mustahkamlash, turizm va iqtisodiyotga hissa qo‘shish, globallashtirish sharoitida milliy o‘zlikni himoya qilish [19., b-92].



Muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish uchun: madaniy meros obyektlarini saqlash bo‘yicha huquqiy bazani amaliyot bilan uyg‘unlashtirish;

-muzeylar va arxivlar o‘rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish, raqamli platformalar yaratish;

-muzey-pedagogika dasturlarini rivojlantirish, maktab va oliy ta‘lim tizimi bilan integratsiyani kuchaytirish;

-turizmni rivojlantirishda muzeylar rolini oshirish, lekin meros obyektlarining muhofazasini ustuvor saqlash;

-xodimlar malakasini oshirish, zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha treninglar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimov A. Education of National Identity as a Social Need and Pedagogical Problem. – Scientific Journal of the Fergana State University, 2023.
2. Vaxidov S. Mustaqillik yillarida madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan foydalanish masalalari. – Tamaddun Nuri jurnali, 2024.
3. Aytmuratova J. va boshqalar. Milliy xalq ta‘limi, adabiyot va san‘at rivojida jadidlarning tutgan o‘rni. – Tamaddun Nuri jurnali, 2025.
4. Jo‘raqulova R. O‘zbek va ingliz tillaridagi milliy-madaniy semali leksik birliklarni tarjima qilish muammolari. – Tamaddun Nuri jurnali, 2025.
5. Mirzabayev K. State Policy on Ensuring the Efficiency of the Civil Service in the Public Administration System of Uzbekistan: Administrative Reform Process. – Scientific Journal of the Fergana State University, 2023.
6. Ja‘farov I. Globallashuv davrida milliy o‘zlikni saqlash va ma‘naviy qadriyatlar himoyasi. – Tamaddun Nuri jurnali, 2025.
7. Arslonzoda R. va boshqalar. Improvement of State Archives Activity in the Republic of Uzbekistan. – Scientific Journal of the Fergana State University, 2023.
8. Ikromova M. Ilm-fan va matbuot orqali milliy uyg‘onish g‘oyalari targ‘ib etishda Behbudiyning o‘rni. – Tamaddun Nuri jurnali, 2025.
9. Mamaraximov K. Madaniy tadbirlar, san‘at va ijtimoiy muhitning estetik didga ta‘siri. – Tamaddun Nuri jurnali, 2025.
10. Ismoilov Sh.D. National Values and Traditions of Children in the Family Based on Theoretical Methodology of the Formation of Relationships Basics. – Scientific Journal of the Fergana State University, 2023.
11. Azimov I. The Actions on the Creation of the Uzbek-Latin Alphabet. – Scientific Journal of the Fergana State University, 2023.
12. Kadirova X. Milliy mansublik va o‘zlikni anglash darajasi. – Belarusian-Uzbek Scientific and Educational Journal, 2022.
13. Ibragimova I. National Traditions are the Criteria that Form National Values. – Scientific Journal of the Fergana State University, 2023.
14. Tursunov J.E. Development of Creativity in Students in Technology Lessons. – Scientific Journal of the Fergana State University, 2023.
15. Karimov N. Procedure for Adherence to Hygienic Rules in the Establishment of Crossways in the Field of Study Fields. – Scientific Journal of the Fergana State University, 2023.
16. Ibragimova M. Sog‘om avlod tarbiyalashda badiiy gimnastika va milliy raqs uyg‘unligini ta‘minlashning samarador jihatlari. – Tamaddun Nuri jurnali, 2025.

**“SIRLI RANGLARDAGI MILLIY MEROS”
mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi**



17. Sarsenbaeva E. Intellektual mulk obyektlarini fuqarolik-huquqiy qorgawda xalqaro standartlar ham milliy nizomshiliqtin saykesligi. – Tamaddun Nuri jurnali, 2025.
18. Qurbonov J. Integrative Educational Technologies of Intellectual Culture Development in Future Teachers. – Scientific Journal of the Fergana State University, 2023.
19. Beviz T. va boshqalar. Museum Practices as a Tool for Shaping National Identity and Social Consolidation. – Political Studies, 2025.
20. The Usefulness of Implementing Concepts of Devotion to the Motherland in Preparing Students for Military Service Through the Elements of Initial Preparation. – 2023.
21. <https://lex.uz/uz/>
22. <https://new.muzeyart.uz/>

